

**Nazarov.D.M.**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*

*Urganch davlat universiteti*

*Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi*

## **JANUBIY QORAQALPOG'ISTON TUMANLARIDAGI TURISTIK OBYEKTLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Anostatsiya:** Maqolada Janubiy Qoraqalpog'iston tumanlaridagi turistik obyektlar va ularning rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr yuritiladi. Mazkur tumanlar hududida mavjud tarixiy-arxeologik yodgorliklar, ziyoratgohlar, diqqatga sazovar zamonaviy arxitektura inshootlari va tabiiy turistik obyektlar hamda ularning joylashuvu, shuningek ularga turistlarni jalg qilish borasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tildi. Tarixiy-madaniy turizm, ekoturizm, gasrtonomik turizm, agroturizm va ziyorat turizmi kabi turizm turlarini Janubiy Qoraqalpog'iston tumanlari miqyosida rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** agroturizm, arxeologik yodgorliklar, arxitektura, ekoturizm, turizm, tarixiy-madaniy turizm, urf-odat, ziyoratgohlar, ziyorat turizmi.

*Назаров Дидар Махсад угли*

*Студент 2-курса географии*

*Ургенчский государственный университет*

*имени Абу Райхана Аль-Бируни*

## **ТУРИСТСКИЕ ОБЪЕКТЫ В РАЙОНАХ ЮЖНОГО КАРАКАЛПАКСТАНА И ВОПРОСЫ ИХ РАЗВИТИЯ**

**Анотация:** В статье рассматриваются туристические объекты в районах Южного Каракалпакстана и вопросы их развития. Были даны предложения и рекомендации по действующим на территории данных районов историко-археологическим памятникам, святыням, замечательным

современным архитектурным сооружениям и природным туристическим объектам, их местонахождению, а также работе по привлечению к ним туристов. Проанализированы возможности и перспективы развития таких видов туризма, как историко-культурный туризм, экотуризм, гастрономический туризм, агротуризм и паломнический туризм в масштабах районов Южного Каракалпакстана.

**Ключевые слова:** агротуризм, археологические памятники, архитектура, экотуризм, туризм, историко-культурный туризм, традиции, святыни, паломнический туризм.

*Nazarov Didar Maxsat o'g'li  
2nd year geography student  
Urgench State University  
named after Abu Rayhan Al-Biruni*

## **TOURIST SITES IN THE REGIONS OF SOUTHERN KARAKALPAKSTAN AND ISSUES OF THEIR DEVELOPMENT**

**Abstract:** The article will focus on tourist facilities and their development issues in the districts of South Karakalpakstan. On the territory of these districts, proposals and recommendations were made on the existing historical and archaeological monuments, shrines, noteworthy modern architectural structures and natural tourist objects and their location, as well as the work that should be done to attract tourists to them. Opportunities and prospects for the development of such types of tourism as historical-cultural tourism, ecotourism, gastronomic tourism, agrotourism and pilgrimage tourism on the scale of the districts of Southern Karakalpakstan have been analyzed.

**Key words** agrotourism, archaeological sites, architecture, ecotourism, tourism, historical and cultural tourism, traditions, shrines, pilgrimage tourism.

**KIRISH.** Turizm-bu sayohat qilishning bir turi bo'lib, unda odamlar dam olish, biznes qilish, boshqa xalqlar madaniyatini o'rganish kabi turli maqsadlar uchun odatiy bo'lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushiniladi.

Qoraqolpag'iston Respublikasining janubiy Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l tumanlari o'zining tarixiy yodgorliklari, xalqlarning madaniyati, tabiyatining xushmanzara joylari, ziyorat maskanlari bilan alohida ajralib turadi.

Bu borada Beruniy tumanining Amudaryo bo'yи florasi va faunasi, tabiiy landshaft ekoturizmi, xususan Quyi Amudaryo biosfera rezervati va uning o'simlik hamda hayvonot olamidagi o'ziga xosliklar evaziga mahalliy va xorijlik sayyoohlarni jalg qilishdagi imkoniyatlari katta ahamiyat kasb qiladi. Ayniqsa, gavjum to'rangilzorlar ichra hayot kechiruvchi maftunkor Buxoro bug'usi Xongulni ko'rishga ishtiyoqmandlar, ularning bolalash mavsumidan keyin jazzi bug'ichalarni tomosha qilishga ko'proq tashrif buyuradilar. Bunday tabiiy turistik obyektlarga Amudaryo tumanidagi Shayhi Jalil bobo va Beruniy tumanidagi Sulton Uvays, To'rtko'l tumanidagi Ko'kcha qirlari va Ellikqal'a tumanidagi betakror Aqchako'l sohil bo'yи hududlarini ham kiritish mumkin.

**ASOSIY QISM.** Mazkur mintaqaga eng ko'p uchraydigan turistik obyektlar bu tarixiy-arxeologik yodgorliklardir. Beruniy tumanining tarixiy obyektlardan eng ko'zga tashlangani bu Qizil qal'a yodgorligi hisoblanadi. Qizil qal'a Tuproqqal'adan 1,3 km g'arbda joylashgan. Qizil qal'a kvadrat shaklga ega bo'lib, ikki tomondan minoralar va balandligi 16 m bo'lgan nayzasimon tuynuklarga egadir. Bu qal'aga janubi-sharqiy tomondan ko'tarma yo'lak orqali kirish mumkin. Ushbu qala o'rta asrlarda Xorazmga xos bo'lgan mustahkam saroy sifatida ishlatilgan. Qal'aning ichki qismi yaxshi saqlanib qolgan. Bu yerga tashrif buyuruvchi turistlar qal'aga kirgan zahoti o'zlarini ikkinchi qavatga kirgandek his qiladi. Tumanning yana bir tarixiy obyektlardan biri bu Ayaz qal'a bo'lib, milodiy II-IV asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat arxeologik yodgorlik majmuasidir. Bular: Ayazqal'a I, Ayazqal'a II, Ayaz qal'a III yodgorligidir. Sayyoohlarning birinchi boradigan joyi Ayaz qal'a yodgorlidir. Qizilqum cho'liga qaragan tepalik cho'qqisidagi bu joy Qadimiyl Xorazm uzoq o'tmishdagi shimoli-sharqiy mudofa inshooti sifatida bunyod qilingan asrlar davomida qancha tarix voqealariga guvoh bo'lgan qo'rg'on xarobalaridir. Ayaz qal'a o'z davrida

Xorazmning mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Ayaz qal'a I yodgorligidan yuqoriga chiqib atrofga nazar tashlasangiz Ayaz qal'a II yodgorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayaz qal'a III biroz uzoq masofada joylashganligi va ko'p yemrilib ketganligidan uni bu joydan aniq ko'rishning imkonini kam va unitomosha qilish uchun janubga ancha pastga yurish lozim.

Ellikqal'a tumaning turizm salohiyati ancha yuqori bo'lgan hududlardan biri Aqchako'ldir. Aqchako'lning umumiy maydoni 1150 km kvga teng bo'lib ,eng chuqur joylari joylari 12 m gacha yetishi aniqlangan. 2022-yili Aqcha ko'l turistik zonasining infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 10 mld so'm mablag' ajratilgan. Bu mablag' hisobiga turistik zonada sayyoohlар uchun qulaylik yaratilishi kerak bo'ladigan maxsus yo'laklar, elektr tizimlari, mehmonxonalar va katerlar tashkil etilgan. Shuningdek kattaligi 6000 gektargacha bo'lgan ko'l hududi 3000 tonnagacha bo'lgan chiqindilar tozalangan. Bularning hammasi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan. Aqchako'lda olib borilayotgan ishlar misolida yurtimizda darhaqiqat turizmni rivojlanib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tumanda yana Tuproqqal'a, Guldursin qal'a kabi turistlarni o'ziga jalb qilayotgan qadim Xorazm tarixini o'zida sir tutgan salobatli tarixiy obidalari ham bor.

Ziyorat turizmi aholi o'rtasida keng tarqalgan turizm tarmog'idir. Ziyorat qilish turizmi bir nechta turlarga bo'linadi:

- a). muqaddas joylarni ziyorat qilish;
- b). muqaddas joylarni ko'rish, ularning tarixi, madaniyatini o'rganish;
- d). ilmiy safar diniy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilarning muqaddas joylarga borishi.

Turizmnинг ushbu turi uchun eng muhim muammolardan biri yuqori malakali Gidlarni tayyorlash hisoblanadi. Ziyorat turizmining bu tumanlarda rivojlanishiga Norinjon bobo, Sulton bobo, Shayxi Jalil bobo ziyoratgohlari hamda Kechirmas ota maqbarasi alohida o'ringa ega.

Norinjon bobo majmuasi XVII-XIV asrlarga tegishli bo'lib eng muqaddas qadamjolardan biridir. Maqbara XIII asrda musulmon arbobi Muxtor Vali tomonidan topilgan va u yangi maqbara binosini qurgan. XX asrda yodgorlik qayta tiklangan va rekonturiksiya qilingan. Kechirmas ota maqbarasi XII-XIV va XVI-XIX asrlarga tegishli bo'lib, bugungi kunda Ellikqal'a tumanidagi Saxtiyon shaharchasi yaqinida joylashgan. Maqbara hozirda Qoraqolpag'iston Respublikasining madaniy me'ros boshqarmasi huquqi asosida davlat mulki hisoblanadi. Norinjon bobo majmuasi va Kechirmas ota maqbarasiga hamda tumandagi boshqa tarixiy obyektlarga 40 mingdan ortiq ziyoratchi tashrif buyuradi.

To'rtko'l tumanining tarixiy meros obyektlardan Jonbos qal'a, Qoyqirilgan qal'a hamda So'qili ota yodgorliklari sayyoohlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib bu yerga har yili ko'plab turistlar tashrif buyuradilar. Qizilqumning janubiy sarhadlarida joylashgan Jonbos qal'a (mil.av.IV-milodiy I asrlar) Amudaryoning eski tarmog'i Suvyorg'on kanali boyi manzarasi bilan bog'lanib ketadi hamda qiyalikdagi ajoyib va chiroyli xarobalarni aks ettiradi. Jonbos qal'a yaqinida Bronza davriga oid ko'plab yodgorliklar topilgan . Ushbu yodgorlik Jonbos qal'a tepaligining shimoli-g'arbiy qiyaligidagi, Sulton Uvays tog' tizmasining janubi-sharqqa cho'zilgan tepaliklar tizimining tugashida joylashgan. U Qadimgi Xorazmnинг ko'plab boshqa qal'alaridan, unung devorlari va burchaklarida minoralarning yo'qligi bilan ajralib turadi.Tashqi devorlari tor va baland, nayzasimaon, shaxmat tartibida joylashgan tuynuklar bilan qoplangan.

Qo'yqirilgan qal'a qazish ishlari to'liq o'tkazilgan kam sonli inshootlardan biri bo'lib, u o'zining o'ziga xos meymorchiligi bilan ajralib turadi. Dastlab, u ikki qavatli doira shakldagi, tuynukli ikki qavat aylana devor bilan bilan mustahkamlangan va kengligi 15 metr hamda chuqurligi 3 metr bo'lgan xandaq bilan o'rالgan inshoot bo'lган. Olimlarning fikricha, Qo'yqirilgan qal'a muqaddas bino hisoblanib, unda astronomik tadqiqotlar olib borilgan va Fomalgaut yulduzlari o'r ganish uchun qurilgan. Qumbosqan qal'a O'zbekistondagi merosiy

yodgorliklardan biri bo'lib To'rtko'l tumanining turkmanlar istiqomat qiladigan A.Durdiyev ovul fuqorolar yig'inida joylashgan.

**BAHS-MUNOZARA.** Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlaridagi turistik maskanlarning rivojlantirish tendensiyalari Qoraqolpag'iston Respublikasu balki O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning muhim yo'naliishlaridan biridir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ushbu tumanlarda turizmni rivojlantirish uchun hududning boy tarixiy va madaniy merosi, tabiatning xilma-xilligi va turizm uchun yaroqli joylari bilan ajaralib turadi. Bu turizm maskanlarini rivojlantirish borasida mavjud tendensiyalarini quyida batafsil ko'rib chiqamiz:

-Beruniy tumani o'zining boy tarixi arxeologik va tarixiy yodgorliklari bilan mashhur. So'nggi paytlarda bu yerlarda arxeologik qazishmalarning olib borilishi, ayniqsa "Aqchaxon" qal'ada Avsrtaliyalik va Yaponiyalik olimlar hamkorligida, shuningdek mavjud tarixiy qal'alarini saqlash va o'rghanish turizmga katta qizig'ish uyg'otmoqda. Beruniy tumani yana o'zining tabiat manzaralari bilan sayyoohlarni o'ziga jalb qiladi. Bu tumanda ekoturizmni rivojlantirish potensiali juda katta eknligini anglatadi. Ekoturizm sayyoohlarni tabiiy muhitga yaqinlashtiradi va o'ziga xos jihatlarni namoyon qiladi.

-Ellikqala tumani ham o'zining ananaviy turizmi va tarixi bolan turizmni rivojlantirishda kata ahamiyatga ega . Bu tumanda xalq san'ati, hunarmandchilik va a'nanalarga oid festivallar tashkil etiladi. A'nanaviy turizm shakli Ellikqal'a tumanining urf- odatini va san'atini bilan tanishish imkonini beradi.

-To'rtko'l tumani ham o'zining boy madaniy tarixi asosan ham shu yerda istiqomat qiluvchi o'zbek va turkman xalqlarining madaniyati, urf-odati bilan ajralib turadi va turistalarni jalb qilishga imkon beradi. Bu tuman o'zining iqtisodiy rivojlanishi bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi. Ya'ni bu yerda turistlar uchun mehmonxonalar, ovqatlanish joylari va o'zining transportdagi infratuzilmaning qulayligi turistlarga qulay sharoit yaratib bermoqda. Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarda marketing va reklama sohasini rivojlantirsak

turizmning rivojlanishiga katt hissa qo'shami. Bu sohalar hozirgi kunda turizmni rivojlantirisgning asosiy tendensiyalardan biridir.

**XULOSA.** Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida turizmni rivojlanirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Tabiat bilan bog'liq bo'lgan ekoturizm, tarixiy-madaniy, ekologik, ziyyarat va ta'lim turizmini rivojlanirish orqali bu tumanlarda turizm salohiyatini oshirish mumkin. Infratuzilma va transport aloqalarini rivojlanirish, mahalliy aholining urfodatlarini o'rghanish vayangi turistik maskanlarni qurish orqali turizmni rivojlantirsak bo'ladi.

Janubiy Qoraqalpog'iston tumanlarida shuningdek, agroturizm (mevali bog'larga, uzumzorlarga, paxta dalalariga), gastronomik turizm (hududdagi o'ziga xos milliy taomlari: ishlama, do'rama, kurdik, qurmush, beshbarmoq) va Amudaryo boyi sohil turizmini rivojlanirish imkoniyatlari mavjud.

Buning davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va katta miqdorda mablag' ajratilmoqda. Agarda bu tumanlarda turizm sohasini rivojlanirsak va malakali kadrlarni tayyorlasak davlatimiz iqtisodiyotiga ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Usmonov M.P., Jumabayev T.J. Sherxolov O, Turizm geografiyasi 1-2 kism. Samarqand, 2013.
2. Soliyev A.S., Usmonov M. Turizm geografiyasi Samarkand 2005.
3. S.Daniyarov, B.Daniyarova, T.Toshtemitova. Dunyo odamlari uchun yo'l yo'riqlar. Parij, 2020.
4. Ya.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent, 1959.
5. Koy-Krilgan-kala-pamyatnik kulturm drevnego Xorezma IV v. do n.e.-IV v.n.e.(otv.red.S.P.Tolstov, B.I.Vaynberg), M, 1967.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. Tolstov S.P., Drevniy Xorezm, M., 1948.
8. G'.Xo'janiyozov. Xorazmning mudofaa inshootlari. Toshkent, 2007.
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kechirmas\\_bobo\\_maqbarasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kechirmas_bobo_maqbarasi)

10.<https://uzbekistan.travel/uz/o/norinjon-bobo-majmuasi/>